

“Farmatsevtika va biotexnologiya” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Onkologematologik kasalliklarni tashxislash uchun BCR-ABL1 p210 va JAK2 V617F mutatsiyalariga yo‘naltirilgan PZR diagnostikalarini ishlab chiqish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy-tadqiqot natijalari: -insonning BCR-ABL1 ximerik hamda mutatsion JAK2 genlarining konservativ hududlariga mos keluvchi praymerlar va fluorescent zondlarni in silico usulida loyihalash maqsadida FastPCR, Praymer3Plus va SnapGene dasturlari asosida solishtirma genetik tahlillar amalga oshiriladi; -<i>In silico</i> usulida loyihalangan oligonukleotidlarning (praymerlar va fluorescent zondlar) kimyoviy sintezi amalga oshiriladi. Sintezlangan oligonukleotidlar xromatografiya va gel-elektroforez usullari yordamida tozalanadi; -kasallikni aniqlash va monitoring qilish uchun PZR reaksiyasi sharoitlari va komponentlari tanlanadi. BCR-ABL1 p210 ximerik genining mavjudligini aniqlash uchun sifat va miqdoriy, JAK2 V617F mutatsiyasini miqdoriy aniqlash uchun PZR to‘plamlarining reagentlar tarkibi ishlab chiqiladi; -PZR va RV-PZR reaksiyasi uchun optimal sharoitlar ishlab chiqiladi. -ishlab chiqilgan diagnostikumlar sezgirligi, o‘ziga xosligi va takrorlanuvchanligi bo‘yicha tahlil qilinadi va o‘zining import analoglari bilan taqqoslanadi; -yangi yaratilgan “PCR Detect BCR-ABL1 p210” va “PCR Detect JAK2 G1849T” PCR test sistemalari uchun MTH (HTD), VFM (BFC), texnologik reglament va foydalanish bo‘yicha qo‘llanma ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Olingan natijalar Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar

bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi.

Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Farmatsevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligining** qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.